


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“FOLKLOR AMALIYOT”

DASTURI

(I kurs)

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik

TOSHKENT – 2021

“Folklor amaliyot” dasturi ToshDO‘TAU Kengashining 2021-yil 26-avgustdagi 1-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbek folklori” fan dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

F.I.SH	Lavozimi
A.Tilavov	ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
I.Sayitqulov	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovini, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

F.I.SH	Ish joyi va lavozimi
Sh. Turdimov	Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori
J. Eshonqulov	Alisher Navoiy nomidagi davlat muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori

Fanning amaliyot dasturi O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasining 2021-yil “26”-avgustdagi 1-son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi
fakulteti dekani

2021-yil “ ” _____

(imzo) B. Abdushukurov

O‘zbek adabiyoti

tarixi va folklor kafedrasi mudiri

2021-yil “ ” _____

(imzo) N. Jabborov

1. **Folklor amaliyotiga tayyorgarlik bosqichi**, avvalo, "Xalq og'zaki poetik ijodi" fanidan o'tiladigan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari davomida bo'lajak folklor amaliyotining maqsad va vazifalarini ham nazarda tutish lozim. Shuning uchun ham talabalar nazariy ma'lumotlar berayotgan paytda tahlil uchun olingan namunalarning xalq orasida mavjud ekanligi ta'kidlanadi.

Amaliyot davomida talabalarga o'z mahalliy hududida tarqalgan qo'shiq, maqol, afsona va rivoyatlardan namuna talabdagi miqdorda to'planadi. Shu usul bilan talabalarda og'zaki ijod namunalari yozish, ilmiy tahlil qilish malakasi shakllantiriladi.

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIGA OID MATERIALLARNI

AMALIY O'RGANISH VA TO'PLASH

O'rganilayotgan hudud vakillari nutqini yozib olish yaxshi o'tsa, keyin quyidagi mavzularda suhbatlashish jarayonini tashkil etish kerak. Buning uchun ikki talaba aytuvchini mavzuga oid so'zlashga da'vat etadi, ikki yoki uchta talaba esa ularning nutqini yozishni boshlaydi. Bunda birinchi talaba gapirayotgan odamning uchta gapini yozib olsa, keyingi talaba 4-5-6-gaplarni yozib oladi. 7-8-9-gaplarni esa birinchi talaba yozadi. Shu tarzda aytuvchilarning aytirilayotgan fikrlari yozib olinadi. Hudud vakillari bilan o'tkazilgan suhbatlarni quyidagi mavzularda uyushtirish mumkin:

1. Ushbu hudud tarixi, tarixiy toponimikasi to'g'risida ma'lumotlarni so'rash.
2. Hududning nomi va ma'nolarini imkoniyat doirasida izohlash.
3. O'rganilayotgan hudud vakillarining o'ziga xos urf-odatlarini birma-bir yozib olish.
4. Qishloq vakillarining qadriyatlarini matnlarda yozib olib, izohlash.
5. Aholi nutqida uchraydigan xalq dostonlarini yozish.
6. Xalq ertaklarini yozib olish
7. Hududda aytiriladigan xalq qo'shiqlari, xususan, mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlardan namunalarni yozish.
8. Afsona va rivoyatlardan namunalarni yozish.
9. Hududda keng tarqalgan latifa, lof, askiyalarni yozib olish.
10. Bolalar folkloriga oid manbalar (sanamalar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar qo'shiqlari) ni yig'ish
11. Hududga xos bo'lgan milliy o'yinlarni yozish.
12. Hududga xos bo'lgan marosim folklori (kuyov salom, kelin salomlar, beshik to'yi, o'g'il to'yi, aqiqa to'ylari, qiz to'yi; o'lim bilan bog'liq marosim, marhumlar o'tkaziladigan urf-odatlar) dan namunalarni yozish

13. Hududda aytiriladigan otaga, onaga, akaga, ukaga, opaga, singilga bag'ishlangan marsiyalarni yozib olish

14. Hududga xos bo'lgan xalq maqollari, matallardan namunalarni yozish .

15. Hududga oid maqto'v, qarag'ish so'zlarini yozib oling.

16. Darvishona marosimi, uning paydo bo'lish tarixi haqida ma'lumot olish.

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi I-kursida

"O'zbek folklori" fanidan folklor amaliyotini o'tkazishning

KALENDAR REJASI

No	Amaliyot davrida bajarilgan ishlar mazmuni	Bajarilganligi haqida belgi
1.	Folklor amaliyot o'tkazishga doir maslahatlarni talabalarga aytish.	
2.	Folklor amaliyot o'tkazilayotgan hududni o'rganish, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'yicha materiallar to'plash ishlarini kuchaytirish.	
3.	Mazkur amaliyot o'tkazilayotgan hudud rahbarlari va aholisi tanishish.	
4.	Folklor amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, xalq dostonlari, qo'shiqlaridan namunalarni yig'ish.	
5.	Rejalashtirilgan holda folklor amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, xalq ertaklari, afsona, rivoyatlarni yig'ish, to'plash, yozib olish.	
6.	Ushbu amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, to'y marosimlari bilan bog'liq urf-odatlarini, aytimlarni to'plash, yozib olish, Bajarilgan haftalik ishlarini tahlil etishga kirishish.	
7.	Folklor amaliyot o'tayotgan hududdagi motam marosimlari haqida ma'lumotlar yig'ish, ularga oid marsiyalarni yozib olish. Bajarilgan ishlarni yozma ravishda tahlil etish.	
8.	Sheva amaliyoti o'tayotgan hududdagi bolalar folkloriga oid bo'lgan sanamalar, tez aytishlar, topishmoqlarni yozib olish, to'plash. Bajarilgan ishlarni tahlil etishga kirishish.	
9.	Rejalashtirilgan holda folklor amaliyot o'tayotgan hudud	

	kishilari bilan tanishib, tarixiy joy nomlari, ularning kelib chiqishi, etimologiyasi haqida ma'lumotlarni yozib olish.	
10.	Bu amaliyot o'tayotgan hudud aholisidan latifalar, askiyalarni yozib olish	
11.	Folklor amaliyot o'tayotgan hudud aholisi bilan aholisi tanishib, so'zning magik kuchi bilan bog'liq bo'lgan marosim folkloriga oid materiallarni yig'ish.	
12.	Ushbu folklor amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, hududdagi maqto'v so'zlar hamda qarq'ishlarni yozib olish.	
13.	Mazkur amaliyot o'tayotgan hudud aholisidan xalq maqollari, matallardan namunalarni yozib olish.	
14.	Bu malakaviy amaliyot yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlash.	
15.	Amaliyot yuzasidan tayyorlangan yakuniy hisobotni fakultetdagi amaliyot rahbariga topshirish va o'zi to'plagan reyting balini bilish. Amaliyot bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy anjumangacha qatnashish.	

FOLKLOR AMALIYOTGA BORISH UCHUN TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI

1. Malakaviy amaliyotga borgan talabalar texnika xavfsizligiga amal qilishi shart.
2. Ko'chada yurganda yo'l transport qoidalariga amal qilish.
3. Elektr jihozlariga so'roqsiz, ruxsatsiz tegmaslik.
4. So'roqsiz, ruxsatsiz begonalarning mashinalariga mimmaslik.
5. Elektr asboblarni ruxsatsiz ishlatmaslik.
6. Gaz asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.
7. Taqiqlangan joylarda cho'milmaslik.
8. Ariqdagi suvdan foydalanmaslik.
9. Taqiqlangan joylarda yurmaslik.
10. Begona odamlar bilan suhbatlashmaslik.
11. O'rganilayotgan hududdan ruxsatsiz holatda yakka o'zi chiqib ketmaslik.
12. Jamoat tartibini buzmaslik.
13. Keskir asboblardan noo'rin foydalanmaslik.
14. Yana boshqa texnik xavfsizlik talablariga amal qilishlari lozim.

Folklor amaliyotining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Ushbu amaliyotida yig'iladigan materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun quyidagi fanlardan ham xabardor bo'lish talab qilinadi: Adabiyot tarixi, nazariyasi, folklor; etnografiya, san'atshunoslik; tarix.

Folklor amaliyotini o'tkazishda yangi texnologiyalar

Diktofon, videokamera, fotoapparat, ovoz yozib olish va tasvirga tushirish imkoniyati bo'lgan telefonlardan foydalaniladi.

Baholash tartibi

Talabalar amaliyot davrida to'plagan xalq og'zaki ijodi materiallari quyidagilar asosida tekshirilib, baholanadi:

Yozib olingan matnlarning originalligi.	30 ball
Yozib olingan matnlarning variantlari.	20 ball
Yozib olingan matnlarning mukammalligi.	20 ball
Yozib olish prinsiplariga amal qilinishi.	20 ball
Folklor matnlarning ilmiy pasportini to'g'ri to'ldirish.	10 ball
JAMI	100 ball

Bunda:

- 86 dan 100 balgacha "5" baho;
- 71 dan 85 gacha "4" baho;
- 55 dan 70 gacha "3" baho;
- 0 dan 54 balgacha "2" baho.

II. ASOSIY QISM

2.1. Folklor amaliyotning tarkibiy qismlari

Folklor amaliyoti puxta tayyorgarlikni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Talabalar dastlabki ilmiy-amaliy faoliyatga har tomonlama tayyor bo'lmog'larini lozim. Uning natijasi uni tayyorlash va o'tkazish jarayonida bajariladigan ishlarining saviyasiga bog'liq. Shuning uchun bu jarayonni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Folklor amaliyotga tayyorlanish bosqichi.
2. Amaliyot davri.
3. Yakuniy bosqich.

Mazkur amaliyotning maqsadi – talabalarimiz ongiga o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘ziga xos jihatlari singdirish va ularni amalda ko‘rish, yozib olish asosida folklor materiallarning turli janrlarga oid bo‘lgan namunalarini yig‘ib olish, ularni saralash, qiyoslash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Shu maqsaddan kelib chiqib folklor amaliyotning quyidagi vazifalari bor:

1. Talabalarga o‘rganilayotgan hudud vakillaridan xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish uchun maxsus tuzilgan savollar majmui asosida suhbatlashishning malaka va ko‘nikmasini berish.
2. O‘rganilayotgan og‘zaki ijod namunalarining xususiyatlarini amalda tushuntirish, singdirish.
3. Og‘zaki ijod namunalarining janrlarini aniqlash.
4. Ularni janrlar asosida guruhlariga bo‘lish.
4. Xalq dostonlari, ertaklaridan namunalar yozish.
5. Xalq qo‘shiqlaridan namunalar yozish.
6. Xalq maqollari, matallari, askiya, lof, latifalardan namunalar yig‘ish.
7. Bolalar folkloriga oid materiallarni to‘plash.
8. Hududdagi joy nomlari bilan bog‘liq rivoyatlarni yozib olish.
9. Yig‘ilgan materiallar ichida o‘xshash namunalarini ajratish, qiyoslash
10. Marosim folkloriga oid manbalar to‘plash.
11. Marosim folklorining o‘tkazilish jarayonida ishtirok etish
12. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirgan qimmatli meros ekanligini tushuntirish va unga hurmat hissini kuchaytirish.

Folklor amaliyoti bo‘yicha talabalar bilimi va bajariladigan ishlarga qo‘yiladigan talabalar:

- talabalar texnik vositalar bilan ishlay olishi, amaliyot o‘tkaziladigan tuman aholisining etnik tarkibi, tarixi haqida yetarli bilimga ega bo‘lmog‘i lozim;
- talabalar yerli aholining qaysi urug‘idan yoki qaysi urug‘lardan iborat ekanligini bilib olishlari kerak. Tajribali, hayotning oq-qorasini tanigan qariyalardan urf-odatlarini, rasm-rusumlarini surishtirib, tartib bilan yozib olishlari lozim;
- hududga tegishli bo‘lgan folklor materiallarni yozib olish. Yozib olingan namunalarining tarkibidagi ayrim tushunarsiz so‘zlarning izohli lug‘atini tuzish;
- yozib olingan matnlarni so‘zlarning o‘rmini almashtirmay, orfoqrafik me‘yorga solmay, orfoepik holati qanday bo‘lsa, shunday qog‘ozga tushirish;
- yozib olingan og‘zaki ijod namunalarini tasnif qilish;
- yozib olingan rivoyat va afsona, qo‘shiq, maqol va boshqa matnlarni tahlil qilish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash.

FOLKLOR AMALIYOTNING BAJARILISHI TO‘G‘RISIDATALABALAR)NING

H I S O B O T I

Talabalarining malakaviy amaliyotning yakuni to‘g‘risidagi ushbu hisobotida quyidagilar o‘z ifodasini topishi shart:

1. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ilgan hudud va amaliyotning muddati to‘g‘risida ma‘lumotni yozish kerak.
2. Bu hududda yana qanday millat, elat vakillari istiqomat qilishlari.
3. Mazkur hududdan yig‘ilgan namunalarining o‘zigagina xos xususiyatlari.
4. Bu hududdagi folklor materiallar biror bir tadqiqotchi tomonidan o‘rganilganmi, yo‘qmi?
5. Oldin o‘rganilgan bo‘lsa, qaysi xususiyatlari e‘tibordan chetda qolgan?
6. Amaliyotda og‘zaki ijod namunalarini haqida tug‘ilgan fikr-mulohazalar yozib boriladi.
7. Bu amaliyot vaqtida paydo bo‘lgan turli xil muammolar ham ko‘rsatiladi.
8. Shu amaliyotni tashkil etish yuzasidan bildiriladigan takliflarni yozish.
9. Mazkur amaliyotni tashkil etish hamda uni o‘tkazish yuzasidan bildiriladigan istaklar ham iloji bo‘lsa yozib olinasa, yaxshi bo‘ladi.
10. Fayl papkada to‘plangan folklor materiallari yig‘iladi va tartib bilan joylashtiriladi.
11. Ushbu amaliyotning kundaligi amaliyot kunlari asosida to‘ldirib boriladi.
12. Hudud vakillari bilan birga tushilgan 2-3ta rasm izohi fayl papkada bo‘lishi kerak.
13. Talaba amaliyot hisobotini belgilangan vaqtda amaliyot rahbarlariga yetkazish shart, aks holda bahorgi imtihonlardan qarzdor sifatida qoladi va keyingi muddatda qayta topshiradi.

Folklor amaliyotni o‘tkazishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek folklori /Darslik. –T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 202
2. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: “Fan”, 2009.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2010.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2013
5. Mirzayev T. va bosh qalar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi.–T.: “Aloqachi”, 2008.
6. T. Mirzayev va boshqalar. O‘zbek folklori. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакаتلар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).
8. Ш. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураемиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
9. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон маънафатларини таъминлаш – юрт гаракети ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
11. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki roetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.: 1999.
12. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. – 410 с.
13. Turdimov Sh. Etnos va epos. Toshkent, O'zbekiston, 2012.
14. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – T.: “Fan”, 2008.
15. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. Toshkent, “Fan”, 2006.
16. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – T.: “Fan”, 2010.
17. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom, 2015, 2016.

Internet saytlari

18. lectures.ndpi.uz>lektions
19. news.uzreport.uz>news_9_u136022
20. www.folklore.ru.
21. www.folksentr.ru
22. <https://m.vk.com>club1962650>
23. folklore.tomsk.ru
- www.ruthenia.ru>folklore

AMALIYOTNING O'TKAZILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Folklor amaliyoti talabalarining qadim-qadimdan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunga qadar yetib kelgan xalq og'zaki ijodi materiallari amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, turli hudud vakillari nutqidan yozib olingan folklor matnlarini to'plab o'rganishning metodologiyasi va metodikasini yana ham yaxshi o'zlashtirish asosida yurtimiz hududlarida mavjud xalq og'zaki ijodi namunalari to'plash, to'plangan amaliyot ma'lumotlari ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy o'rganib, uslubiy tizimlashtirib arxiv fondiga topshirish vazifalarini bajarishga o'rgatadi.

Folklor amaliyoti bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Bunda:**

- Talabalarda xalq og'zaki ijodi namunalari farqlashi va ularni matn sifatida yozib olishlari, yozib olingan matnlarning mukammallik darajasi ko'nikmalarini shakllanganligi;
- Talabalarda o'rganilayotgan namunlarning janrlarini aniqlash, hudud vakillari bilan suhbatlashish, og'zaki ijod namunalari so'zlovchi gapirayotgan vaqtda yozib olish kabi bilimlarining shakllanganligi;
- talabalarining yig'ilgan folklor materiallar ustida ishlash imkoniyatlari, yozib olingan namunalarga ishlov berish haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- talabalar o'rganilgan hudud vakillaridan yozib olingan og'zaki ijod namunalari ilmiy tadqiqotga tortish, ma'lum bir xulosalarga kelish malakalariga ega bo'lishi kerak.

FOLKLOR AMALIYOTI NOMLI MALAKAVIY AMALIYOTNING DASTURI

KIRISH

Amaliyotning mazmuni. Fan(lar)dagi nazariy fikrlar amaliy jarayonlarda, xususan, malakaviy amaliyotlar davrida isbotini topadi. Chumonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom talab qilayotgan yuksak siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga keltiramiz”, deb bekorga aytmagan¹.

Mazkur malakaviy amaliyotga 2 (ikki) hafta vaqt ajratilgan.

¹ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., Ўзбекистон, 2016, 14-бет.